

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING BOG‘LANISHLI NUTQINI O‘STIRISHDA INSHONING O‘RNI

B.Sapayeva – UrDU

I.Sabirova – UrDU

S.Xasanova- UrDU

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda bog‘lanishli nutqni o‘stirishda insho yozish darslarining o‘rni va ahamiyati masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *nutq, bog‘lanishli nutq, insho, o‘g‘zaki insho, yozma insho, ijodkorlik.*

Boshlang‘ich ta’limda oquvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish muhim shartlardan biri hisoblanadi.Qolaversa, nutq har qanday aqliy faoliyat va muloqotning asosi hamdir. O‘quvchilarning taqqoslash, tasniflash, tahlillash, mustaqil va mantiqli mulohaza yuritish, tizimlash hamda umumlashtirish, xulosalar chiqarish singari aqliy faoliyat bilan bog‘liq ko‘nikmalari nutq orqali shakllanadi. Ayni vaqtida, o‘quvchining og‘zaki va yozma nutqiy faoliyatida ham namoyon bo‘ladi. O‘quvchining aqliy rivojlanganlik darajasi og‘zaki va yozma nutqidagi mantiqiy tiniqlik, fikrlarning dalillanganligi va obrazliligida ham ko‘rinadi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqi ya’ni matn yaratishdagi muvaffaqiyatlari boshqa o‘quv fanlarini o‘zlashtirishdagi imkoniyatini ham oshiradi. Bundan tashqari, o‘qish ko‘nikmalarining to‘laqonli shakllanishini va imlo savodxonligi ortishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratilgan, tugallangan mavzuni ifodalaydigan, logik va grammatik qoidalar asosida tuzilgan, mustaqil, tugallangan va o‘zaro bog‘langan ma’noli qismlarga bo‘linadigan nutq bog‘lanishli nutq deyiladi.[1; 321]

Boshlang‘ich sinflar metodikasida bog‘lanishli nutqdan mashq turlariga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) berilgan savolga keng, mukammal javob; 2) o‘qilgan asarni tahlil qilish, grammatik materialni o‘rganish; o‘quvchilar lug‘atini faollashtirish bilan bog‘liq holda har xil matnli mashqlar; 3) muntazam o‘tkazilgan kuzatishlarni yozish, ob-havo kundaligini yuritish; 4) o‘qilgan matnni turli variantda og‘zaki qayta hikoyalash; 5) berilgan mavzu, rasm, kuzatishga oid boshlab berilgan yoki oxiri berilgan hikoya, reja yoki syujet asosida o‘quvchilarning og‘zaki hikoyasi; 6) badiiy matnni hikoya qilish, yod olish, o‘quvchilar saviyasiga mos matnlarni yoddan yozish; 7) ertakni tayyorlanmasdan aytish, kichik she’r, hikoya tuzish; 8) namunasi berilgan badiiy, ilmiy-ommabop matn asosida bayon yozish; 9) o‘qituvchi bergen matnni og‘zaki va yozma qayta tuzish (tanlab

qayta hikoya qilish va bayon, ijodiy qayta hikoyalash va bayon, hikoyani sahnalashtirish kabilar); 10) har xil turdag'i yozma insho.

Bu mashqlarning hammasi nazariyasiz, amaliy tarzda beriladi. Bunday mashqlarni takroriy ishlatmaslik yoki asosiyalarini tushirib qoldirmaslik uchun nutqiy mashqlarning aniq rejasi tuzib olinadi.

Bog'lanishli nutqdan mashqlarni xillashda, avvalo, material manbaiga, mavzu ko'lamiga, shuningdek, janriga, til xususiyatiga, mashq turiga rioya qilinadi.

O'quvchilar nutqini o'stirish ularga aniq ko'nikmalarni singdirish demakdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari mustaqil mashq sifatida bog'lanishli nutqni o'stirishdan quyidagi ko'nikmalarni bilib oladilar:

Mavzuni tushunish, chegarasini aniqlash va uni nisbatan to'liq yoritish ko'nikmasi. Masalan, «Men uy ishlarida onamga qanday yordamlashaman?» mavzusi berilsa, o'quvchilar aniq bajargan ishlari haqida hikoya qiladilar. Ular mavzuni yaxshi tushunishlari uchun bayon matni qayta hikoya qildiriladi, inshoda esa berilgan mavzu yuzasidan mustaqil hikoyalash mashq qilinadi.

Inshoni asosiy fikrga bo'ysundirish ko'nikmasi. Bolalar ishi ma'lum fikrni (tabiatning ajoyib tasvirini idrok etish, o'zlarining baxtli hayotidan g'ururlanish, mehnatga va mehnat kishilariga muhabbatni) ifodalaydi.

Insho uchun mavzuga taalluqli, uni yoritishga zarur bo'lgan materialni yig'ish. Bu bayonga ham taalluqli bo'lib, namunaviy matn tahlil qilinadi, mazmunini to'g'ri tushunish ustida ishlanadi, asosiy mazmun ajratiladi.

Materialni tartibga solish, uni tegishli izchillilikda joylashtirish, matn rejaini tuzish va shu reja asosida yozish ko'nikmasi.

Fikrni adabiy til normalariga rioya qilgan holda to'g'ri ifodalay olish ko'nikmasi. Buning uchun bayon va inshoni nutqiy shakllantirish oldidan unga til tomondan tayyorgarlik ko'rildi.

Matnni og'zaki yoki yozma tuzish, inshoni yozish, ya'ni barcha tayyorgarlik ishlarini yakunlash ko'nikmasi.

Yozilgan matnni takomillashtirish ko'nikmasi. Bu ko'nikma o'z ijodiga tanqidiy munosabatda bo'lish asosida tarbiyalanadi. O'quvchilar material tanlashda va uni joylashtirishda, so'z tanlash, so'z birikmasi va gap tuzishda o'zlari yo'l qo'ygan kamchilikni, xatoni fahmlashga o'rgatib boriladi.

Insho ijodiy ishning eng yuqori shakli bo'lib, maktabda alohida o'rinn tutadi; barcha nutqqa oid mashqlar ma'lum mazmunda inshoga bo'ysunadi.

Insho 1-sinfda kichik og'zaki axborot va emostional hikoyadan boshlanib, o'z fikrini ifodalashga, o'quvchi shaxsining tashkil topishiga xizmat qiladigan, ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan jiddiy rejali aqliy ishga aylanadi.



Insho shaxsni shakllantirishda foydali vosita bo‘lib, his-hayajon uyg‘otadi, aqliy mustaqillikka, fikrlashga, ko‘rgan-kechirganlari va o‘zlashtirganlarini baholashga o‘rgatadi; kuzatuvchanlikni o‘stiradi, voqeа-hodisalar o‘rtasidagi sabab-natija bog‘lanishni topishga, ularni qiyoslashga, xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Insho fikrni tartibga soladi, o‘quvchilarda o‘ziga, o‘z kuchi va imkoniyatiga ishonch tug‘diradi.

Insho - ijodiy ish: o‘quvchidan faollik, qiziqish, fikr bildirishni talab qiladi. Material tayyorlash, uni tartibga solish, insho kompozistiyasi va rejasi haqida o‘ylash, logik bog‘lanishni belgilash, so‘z, so‘z birikmasini tanlash, gap tuzish va uni o‘zaro bog‘lash, imloni tekshirish kabi barcha murakkab ishlar o‘quvchidan aqliy kuchini to‘la ishga solish bilan birga, o‘z ma’naviy faoliyatini boshqarish ko‘nikmasini ham talab etadi.

Inshoda til nazariyasi nutq tajribasi bilan qo‘shiladi. O‘quvchi inshoni, u mustaqil, ijodiy xarakterda bo‘lgani, “o‘ziniki”ni yozgani uchun ham sevadi.

Maktab rivojining barcha bosqichlarida bolalarning mustaqil tuzgan hikoyasi - inshoga alohida ahamiyat berilgan. Maktablar yangi, o‘quvchilar nutqini o‘stirish, aqliy, ijodiy o‘sishiga mo‘ljallangan dasturga o‘tishi munosabati bilan uning ahamiyati yanada o‘sdi.

Og‘zaki va yozma inshoga o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarda mavzuni tushunish va yoritish, o‘z inshosini aniq fikrga bo‘ysundirish, material to‘plash, uni tartibga solish va joylashtirish, reja tuzish va reja asosida yozish, mazmunga va nutq vaziyatiga mos ravishda til vositalaridan foydalanish, yozgan inshosini takomillashtirish ko‘nikmalari hosil qilinadi. Bulardan tashqari, “texnik” vazifalar ham amalga oshiriladi, ya’ni matnni yozishda imloviy va husnixatga doir matnni xat boshilarga bo‘lish, xat boshidan yozish, hoshiyaga rioya qilish kabi talablarga ham amal qilinadi.

Insho yozish ko‘nikmasini shakllantirish aslida boshlang‘ich ta’lim davridan boshlansa-da, uning elementlarini maktabgacha ta’lim davridayoq kuzatish mumkin. Bola gapirishni boshlaganidayoq narsalar, atrof-olam, borliq bilan qiziqa boshlaydi. “Bu nima?” “Nega samalyot ucha oladi?” “Quyosh qayerdan chiqadi?” singari savollar paydo bo‘la boshlaydi. Ularga javob topishga harakat qiladi. Javob topish asnosida qisman ularga o‘z munosabatini ham shakllantiradi. Xuddi shu jarayon, bolaning shaxsiy munosabat bildirish istagi – inshoning ilk kurtaklari sifatida bo‘y ko‘rsatadi va o‘z navbatida insho o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, dunyoqarashini shakllantirish bilan birga ta’lim-tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Metodist olima Q. Husanboyeva o‘quvchi shaxsining yuzaga chiqishida inshoning ahamiyatini quyidagicha baholaydi: “Insho yozish – ijodiy jarayon. O‘quvchini ijodga undash esa ruhiyatini bezovta qila oladigan, qiziqtirgan mavzuda yozishga va eng muhimi, o‘zining tuyg‘ularini, munosabatini so‘z bilan ifodalab berishga qiziqish uyg‘otilganda yengil va muvaffaqiyatlari amalga oshadi. O‘quvchi ko‘pincha yozishga arziydigian salmoqli fikri yo‘qligi uchun yomon yozadi. Adabiyot darslarida insho

yozdirishdan maqsad sinfdagi o‘quvchilarni ijodkor qilish emas. Muhimi, tarbiyalanuvchida shunday tuyg‘ularning ayrim jihatlari, belgilari paydo bo‘lsa, juda bo‘lma ganda, darsda o‘rganganlariga munosabat bildirishga odatlansa, unda insoniylik, shaxslik kurtaklari paydo bo‘ladi. O‘zida shaxslik sifatlarini shakllantirishga erishgan bola rivojlanish sari intilishi, tabiiy.[2; 112]

Xulosa qilib aytganda, bugungi o‘quvchilar ertaga qaysi kasb egalari bo‘lishidan qat’iy nazar, ular birnchi navbatda, madaniyatli, ma’naviy barkamollik sari olg‘a boradigan kishilar bo‘lishlari lozim. Bugungi kunda madaniyatli kishi erkin va savodxonlik bilan yoza olishi va gapira olishi lozim. Shaxsni o‘z fikr va tuyg‘ularini xoh og‘zaki, xoh yozma ravishda ifodalash malakasisiz rivojlantirish mumkin emas. Shaxsni shakllantirish va rivojlantirish – ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni hal qilishning dastlabki shartidir. Aynan mana shu sifat, ya’ni bolalikdan ijodiy fikrlash qobiliyatini, xayol qilish istagini uyg‘ota bilish o‘z fikri va dunyoqarashiga ega bo‘lgan barkamol avlod tarbiyasining asosiy tayanch dasturlaridan biri bo‘lib qoladi. Bunday avlod Vatanimizning ertangi kuni, sharafi va vijdoni bo‘lib ulg‘ayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qosimova K, Matchonov S, G’ulomova X, Yo’ldosheva Sh, Sariyev Sh. Ona tili o’qitish metodikasi. - Toshkent ,”Noshir” nashriyoti ,2009
2. Husanboyeva Q. Adabiyot –ma`naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili.T.:”A.Navoiy nomidagi O’zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti”, 2009, B.112